

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DUNYOQARASHI VA TA'LIMOTI, BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI

**G.N.Bozorova**

*NDKTU akademik litseyi o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada Markaziy Osiyolik mutafakkir shoirlar, qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Xoja Ubaydulloh Ahror Valiylarning komil inson ma'naviyatini shakllatirishga qaratilgan teran g'oyalari haqida, bu dunyoqarashlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tafakkur, "ikkinchi muallim", Umar Xayyom, "may madhi", komil inson, nafsni tiyish;*

Ma'naviyat olamida buyuk siymolar ko'p o'tgan. Ular o'zlari yozib qoldirgan bebaho asarlari tufayli tirikliklaridayoq o'zlariga abadiy haykal qo'yib ketganlar. Tarixni o'rganmoq va undan saboq olmoq har bir inson uchun zarurdir. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag'rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g'oyalar, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi yangi yo'nalishlar birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga hayotbaxsh ta'sir o'tkazib keldi. Falsafa, bamisoli quyosh sharqdan chiqqani kabi, dastlab Mashriqda paydo bo'lgan.

O'rta Osiyolik mashhur qomusiy olim, faylasuf Abu Nasr Forobiy yunon ilmini bilgani uchun u Sharq Arastusi, ya'ni "Ikkinchi muallim" degan nom olgan. Tarbiya borasida u muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka (qattiqqo'llikka) ham, bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirga muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi, agar shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga oqiyotgan ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo'ladi, deb aytgan. Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bunga ilm va yaxshi, ezgu xulq yordamida erishiladi, deb ta'lim beradi.

Abu Ali ibn Sino- jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim: tabib, tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, tilshunos va adib va shoirdir. Ibn Sino juda ko'p mutolaa qilardi. U ilm cho'qqilariga mustaqil o'qib-o'rganish yo'li bilan yetib bordi. Bu haqda allomaning o'zi shunday yozadi: "O'n yoshimda Qur'onni o'rgandim, badiiy adabiyotlarni o'qib chiqdim. Keyin mantiq ilmiga oid kitoblarni mutolaa qilib, mustaqil ravishda bu ilmning nozik qirralarini o'zlashtira bildim. Shundan so'ng

tibbiyot ilmiga murojaat qilib, ko'plab kitoblarni o'qishga tutindim. Qisqa vaqt ichida mening tibbiyot sohasidagi bilimlarim va davolash san'atim shunday sarhadlarga yetdiki, o'sha davrning eng hurmatli hakimlari mening huzurimga

maslahat so'rab kela boshladilar. Men hakimlik amaliyoti bilan ham tinmay shug'ullandim va nihoyat menga insonlarni davolash ilmining darvozalari keng ochildi. Bu vaqtda endigina 16 yoshga to'lgandim. Ana shu yoshimda tunlari uyqu, kunduzlari halovat neligini bilmay faqat ilm bilan mashg'ul bo'ldim, inson tabiati o'z bilimlarini mustahkamlash va ilm yo'lida olg'a

borishga qay darajada qodir bo'lsa, men ham shu darajada harakat qilib, ter to'kdim".

O'z zamonasi va barcha asrlarning eng buyuk allomalaridan biri bo'lgan mashhur Umar Xayyom buyuk faylasuf, matematik, qo'li yengil tabib, ulug' shayx bo'lib, ajoyib falsafiy ruboiylari bilan kishilar qalbi va bashariyat tafakkuri tarixidan o'rin olgan. Uning hassoslik bilan yozilgan har bir ruboiysi, akademik Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek aytganidek, bir dostonga teng. Uning ruboiylari jahonshumul shuhrat keltirgan. Ularda shoir dunyo, odam haqida hayot mazmuni haqida fikr yuritadi. Ruboiylarida donishmandlikka yetaklovchi fikrlar borligini ko'ramiz:

Dilim ilmlardan mahrum bo'lmabdi,  
Bir sir qolmadiki mavhum bo'lmabdi,  
Tun-u kun o'yladim yetmish ikki yil:  
Ongladim-hech narsa ma'lum bo'lmabdi.

Nuktadon va nutqparvar shoir ruboiylarini qanchalik ko'p o'qisak, ualrning bitmas-tuganmas mazmunini tushunamiz. Shoir tasavvufdagi orifona va oshiqona dunyoqarash, maslakni o'z ruboiylarida mujassamlashtirib aks ettirgan. Uning bitta, ikkita ruboiysini o'qib xulosa chiqarib bo'lmaydi. Umar Xayyom ruboiylaridagi "may madhi" ni ham ayni ma'noda- mastlik va beboshlikni targ'ib qilish deb tushunmaslik kerak. Aksincha, mayni majoziy ma'noda axloqiy poklik ramzi deb bilmoq lozimdir.

Firdavsiy masnaviyni, Hozfiz g'azalni qanchalik takomilga yetkazgan bo'lsa, Xayyom ham ruboiyni shunchalik yuksaklikka ko'tardi. Uning ruboiylari deyarli barcha tillarga tarjima qilingan.

Tarixda "Sulhjo'y Valiy" nomini olgan Xoja Ubaydulloh ana shunday siymolardan biridir. Xoja Ubaydulloh yoshligidan ilm o'rganishga jiddiy kirishgan, zamon ulamolari suhbatlarida bo'lgan. Xoja Ahror doim suhbatdoshlar bilan bo'lishni xohlar, shaxsan mehnat qilar, ota sifatida farzandlariga pand-nasihati berar, boshqalarning manfaatlarini o'zining manfaatlaridan ustun qo'yar edi. Aytilganlarning isboti uchun Xoja hazratlari hayotidan ayrim lavhalarni keltirish maqsadga muvofiqdir.

"Bir kun Xoja hazratlari o'z yaqinlari bilan Dashti Abbosga bordilar, - deb yozadi Muhammad Qozi. - U joylar shayx Abusa'id ekinzorlari bo'lib, ularning hosili pishib yetilgan edi. Shayx Abusa'id Xoja hazratlari huzuriga kelib doimo mehmondorchilik qilardi. Bu orada pishib yetilgan hosilga qaramadi va o'z odamlarining ularni yig'ishtirishlariga ham ruxsat bermadi. Xoja hazratlari shayx Abusa'idga qarab: pishib yotgan hosilni yig'ishtirib oling, biz bilan bo'lib qolib, ular nobud bo'lmasin, deb aytсалar-da, shayx bunga e'tibor bermasdi. Bu haqda qanchalik gapirmasinlar, shayx Abusa'id indamasdi. Shundan so'ng Xoja hazratlari o'z yaqinlari bilan u yerdagi g'allani

o'rib oldilar, uni yanchdilar va tayyor g'allani shayx Abusa'idga yubordilar. Xoja hazratlari aytdilarki, shayx Abusa'id juda boy emaski, hosilning nobud bo'lishi unga ta'sir qilmasa, ammo u bizga nisbatan odobni saqlab, biz bu yerdaligimiz vaqtida bu ishni amalga oshirishni lozim ko'rmadi. ”

Bu hayotiy lavha Xoja hazratlarinig shaxsiy fazilatlaridan birini – bevosita mehnat qilish hamda bironing manfaatini ko'zlash va uni xursand qilishga intilishni namoyon etadi. “Ilmni dunyo orttirish va mansab egallash uchun egallagan olimlardan uzoq yurish kerak”, “Farzand ota-onaning bir bo'lagidir.Hech bir ota-ona jigargo'shasining nuqsonli bo'lishini istamaydi” kabi salohiyatli fikrlari hayotiy taomilimizga aylangandir.

Yuqorida zikr etilgan buyuk mutafakkirlarimizning ko'plab asarlarida komil inson ma'naviyatini shakllantirish masalasi alohida o'rin tutgan degan xulosaga kelamiz.Komil insonni tarbiyalash masalasi Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan pedagogikaga oid asarlarning yetakchi mavzusi sanaladi. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan sharaflangan, asrlar davomida bardosh berib, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan axloqiy qarashlarga amal qilish, ona Vatanga, insonni qadrlashga, ishonchni, muhabbatni tarbiyalashga poydevordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Valixo'jayev B, Xoja Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining piri va murshidi komili. Samarqand, 2005. 38-bet
2. S.Jo'rayeva, Haqiqat manzaralari.T:,"Yangi asr avlodi" 2002, 129-bet